



**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2025-yil, 12-13-noyabr

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE
PHILOLOGY AND TRANSLATION
STUDIES”**
international scientific and practical conference
November 12-13, 2025



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

2025-yil, 12-13-noyabr

THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ALISHER NAVO’I TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

THE DEPARTMENT OF “TRANSLATION THEORY AND PRACTICE”

Proceedings of the International Scientific and Practical Conference titled

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE PHILOLOGY
AND TRANSLATION STUDIES”**

November 12-13, 2025

Tashkent – 2025

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 “Filologik komparativistika va tarjimashunoslik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent, 2025. – 889 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas’ul muharrir:
Shuhrat SIROJIDDINOV
akademik

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori

Tahrir hay’ati:

Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Zuhridin Isomiddinov (O‘zbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italiya), Gabriela Shtoecli (Shveytsariya), Qosimboy Mamurov (O‘zbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Misr), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Yurgen Yakob Beker (Germaniya), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Xurram Raximov (O‘zbekiston), Natalya Filimonova (Rossiya), Nedim Bakirci (Turkiya), Farhad Rahimi (Eron), Xayrulla Hamidov (O‘zbekiston), Elmira Adilbekova (Qozog‘iston), Sag‘inbek O‘rinboev (Qirg‘iziston), Zulxumor Xolmanova (O‘zbekiston), Mahmadiyor Asadov (O‘zbekiston), Ziyodaxon Teshaboyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston), Islomjon Yakubov (O‘zbekiston), Nargiza Rashidova (O‘zbekiston), Sabohat Qahharova (O‘zbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (O‘zbekiston,) Nigora Sulaymonova (O‘zbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (O‘zbekiston), Dostonbek Ahmadov (O‘zbekiston), Dilnoza Shonazarova (O‘zbekiston).

Mazkur xalqaro konferensiya materiali filologik komparativistika va tarjimashunoslikning dolzarb nazariy hamda amaliy masalalarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida yoritishga bag‘ishlanadi. To‘plamda turli milliy adabiyotlar, tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, adabiyotlararo aloqalar, qiyosiy-tipologik va qiyosiy-genetik tadqiqotlar, badiiy va maxsus matnlarni tarjima qilish muammolari, tarjima strategiyalari va ekvivalentlik masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, konferensiya materiallarida tarjima nazariyasining zamonaviy konsepsiyalari, tarjimon kompetensiyasini shakllantirish, tarjimoni o‘qitish metodikasi, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda globallashuv sharoitida tarjimaning ijtimoiy-madaniy ahamiyati kabi masalalar keng yoritiladi. Ilmiy maqolalar filologik komparativistika va tarjimashunoslik sohalarida faoliyat yuritayotgan olimlar, tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fanlararo integratsiyani kuchaytirishga hamda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 17-dekabrda 6-sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 Proceedings of the International Scientific-Practical Conference on the topic “Problems of comparative philology and translation studies”. – Tashkent, 2025. – 889 p.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Editor-in-Chief:

Shuhrat SIROJIDDINOV

Academician

Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Editorial Board:

Nozliya Normurodova (Uzbekiston), Zuhridin Isomiddinov (Uzbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italy), Gabriela Stöckli (Switzerland), Qosimboy Mamurov (Uzbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Egypt), Uzok Djoraqulov (Uzbekiston), Gulnoz Khallieva (Uzbekiston), Jürgen Yakob Beker (Germany), Kemal Yavuz Ataman (Turkiye), Khurram Rakhimov (Uzbekiston), Natalya Filimonova (Russia), Nedim Bakirci (Turkiye), Farhad Rahimi (Iran), Khayrulla Hamidov (Uzbekiston), Elmira Adilbekova (Kazakhstan), Sag‘inbek O‘rinboev (Kyrgyzstan), Zulxumor Xolmanova (Uzbekiston), Mahmadiyor Asadov (Uzbekiston), Ziyodakhon Teshaboyeva (Uzbekiston), Dilnavoz Yusupova (Uzbekiston), Islomjon Yakubov (Uzbekiston), Nargiza Rashidova (Uzbekiston), Sabohat Qahharova (Uzbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (Uzbekiston,) Nigora Sulaymonova (Uzbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (Uzbekiston), Dostonbek Akhmadov (Uzbekiston), Dilnoza Shonazarova (Uzbekiston).

This international conference articles are dedicated to illuminating the current theoretical and practical issues in philological comparativistics and translation studies based on the modern scientific approaches. The collection analyzes of mutual influences between different national literatures, languages and cultures; interliterary connections; comparative-typological and comparative-genetic studies; the issues of translating literary and specialized texts; translation strategies and problems of equivalence. Furthermore, the conference materials extensively cover the topics such as: contemporary concepts in translation theory, the formation of a translator competence, methodologies for teaching translation, intercultural communication and socio-cultural significance of translation in the context of globalization. The given scientific articles are intended to scientists, researchers, doctoral students, master’s students and undergraduate students who actively working in the fields of philological comparativistics and translation studies and they serve to strengthen interdisciplinary integration as well as to ensure the harmony between theory and practice.

The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on December 17, 2025.

TARJIMA – QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIKNING TADQIQOT OBYEKTI

Mahmadiyor Asadov,

PhD, dotsent, ToshDO‘TAU

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.12.11/LSUC7691

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarjimaning komparativ tadqiqotlardagi o‘rni, uning adabiyotlararo, madaniyatlararo va poetik jarayondagi funksiyalari, semantik va estetik transformatsiyalarning tabiatiga oid nazariy qarashlar batafsil yoritiladi. Maqola tarjimashunoslik bilan komparativistikaning tutashgan nuqtalarini tahlil qilish, tarjimaning nazariy maqomini aniqlash va uni komparativ metodologiyaning muhim obyektiga aylantirgan omillarni asoslashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *tarjima, komparativistika, adabiyotlararo aloqalar, intertekstual tahlil, madaniyatlararo muloqot, badiiy tarjima, qiyosiy metod, matnlararo munosabat, adabiy universallar.*

Abstract. This article provides a detailed examination of the role of translation in comparative studies, focusing on its functions within interliterary, intercultural, and poetic processes, as well as the nature of semantic and aesthetic transformations. The study aims to analyze the intersection between translation studies and comparative literature, to determine the theoretical status of translation, and to substantiate the factors that have turned translation into a key object of comparative methodology.

Keywords: *translation, comparative literature, interliterary relations, intertextual analysis, intercultural communication, literary translation, comparative method, intertextuality, literary universals.*

Kirish. Zamonaviy adabiyotshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan komparativistika adabiyotlararo aloqalarning mazmuniy va tizimli asoslarini o‘rganadi. Ushbu soha turli milliy adabiyotlarning bir-biriga ta‘sirini, genetik aloqadorlik mexanizmlarini, umumiy hamda farqli jihatlarini aniqlashga qaratilgan ko‘p qatlamli, murakkab ilmiy jarayonni ifodalaydi. Bunda tarjima jarayoni asosiy mexanizmlardan biri sifatida maydonga chiqadi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tarjima hodisasining komparativ tadqiqotdagi o‘rni keskin kuchaydi: tarjima endilikda bir adabiyotdan boshqasiga ko‘chgan matn emas, balki turli madaniyatlar, estetik tafakkurlar, badiiy shakllar va mentalitetlar o‘rtasidagi kompleks o‘zaro ta‘sir jarayoni sifatida talqin etilmoqda. Chunki tarjima bir adabiyotning badiiy-estetik boyliklarini boshqa madaniyatga ko‘chira oladigan eng samarali vosita, adabiyotlararo, madaniyatlararo munosabatlarning harakatlantiruvchi kuch bo‘lib, komparativ tahlilning mazmuniy va funksional asosini tashkil qiladi.

Zamonaviy komparativistlar tarjimani adabiyotshunoslikdagi eng boy va serqirra obyekt deb baholaydilar. Chunki tarjima bir vaqtning o‘zida lingvistik, madaniy, estetik, psixologik va tarixiy qatlamlarni mujassamlashtiradi. M. Toppurning fikricha, qiyosiy adabiyotshunoslik metodologiyasi jahon adabiyotidagi turli xil milliy adabiyot namunalarini qiyoslash imkonini beradi, bu esa tarjimashunoslikka bo‘lgan e‘tiborni oshiradi. [Tonop, 2000: 19]. Tarjima orqali adabiy universallar, milliy mentalitet, badiiy obrazlar tizimi, syujetlar migratsiyasi va poetik strukturalardagi o‘zgarishlar komparativ nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Shu jihatdan tarjima – komparativistika (qiyosiy adabiyotshunoslik)ning ajralmas obyekt, uni to‘ldiruvchi asosiy manba va tadqiqot materiali sifatida maydonga chiqadi.

Komparativist olimi G. Xalliyeva badiiy asar tarjimasi bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan tadqiqotchi qiyosan o‘rganishi mumkin quyidagi jihatlarni sanaydi: 1) original asar va tarjimaning muvofiqligi; 2) yozuvchi va tarjimonning ijodiy individualligi; 3) adabiy aloqa va tarjima; 4) asar va uning retsepsiyasi (qanday edi, qanday qabul qilindi?); 5) tarjima va adabiy ta‘sir masalasi; 6) janrlararo tarjima: lirik, epik, dramatik tur janrlari tarjimalarida o‘xshashlik va farqlar; 7) tarjima va madaniyatlararo kommunikatsiya; 8) badiiy tarjimada lisoniy olamning qayta yaralishi muammosi;

9) yozuvchi va tarjimon mahorati va h.k. masalalar. [Xaliyeva, 2020: 35]. Olimaning bu metodologik yondashuvlariga to‘laqonli qo‘shilgan holda, tarjima asarini asliyat matni bilan qiyosiy tahlil qilishda yana bir qancha jihatlarni tadqiqot predmeti sifatida belgilash mumkin. Bular quyida qismlarda nazariy asoslanadi:

1. Asliyat va tarjimada adabiy komponentlar qiyosi. Qiyosiy adabiyotshunoslik zamonaviy filologiya tizimida mustaqil fan sifatida shakllangan bo‘lib, u turli milliy adabiyotlar o‘rtasida yuzaga keladigan o‘xshashlik va farqlarning mohiyatini, ularning paydo bo‘lish mexanizmini, adabiy jarayonning ichki qonuniyatlarini ilmiy-nazariy asosda tadqiq etadi. Komparativistika, avvalo, badiiy matnning universallasuvi, turli madaniyatlar o‘rtasidagi muloqot, obrazlar tizimining shakllanishi va o‘zaro boyish jarayonlarini aniqlashni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, uning predmeti nihoyatda keng bo‘lib, u adabiy hodisalarni tarixiy, tipologik va funksional qiyoslash orqali paydo bo‘ladigan umumiy qonuniyatlarni ochib beradi.

Qiyosiy adabiyotshunoslikning eng yetakchi yo‘nalishlaridan biri – obrazlar tizimining qiyosiy tahlilidir. Har bir milliy adabiyot o‘ziga xos obrazlar makoniga ega bo‘lsa-da, global adabiy tafakkurda takrorlanadigan, ammo har xil milliy ruhda qayta talqin etiladigan universal obrazlar mavjud. Masalan, Don Kixot, Faust, Hamlet yoki Layli va Majnun kabi obrazlarning turli madaniy muhitlarda qayta yaratilishi komparativ tahlilning asosiy obyekti sanaladi. Obrazlarning turli madaniyatlarda qanday qabul qilinishi esa tarjima orqali yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

Qiyosiy adabiyotshunoslik doirasida alohida ahamiyatga ega jarayonlardan yana biri syujet va motivlar migratsiyasi hisoblanadi. Bir xalq adabiyotida paydo bo‘lgan syujet yoki motiv boshqa bir adabiyotga ko‘chib o‘tishi jarayoni tarjima orqali yanada faollashadi. Masalan, Qur‘on syujetlarining dunyo adabiyotiga o‘tishi, Sharq mumtoz motivlarining G‘arb romantiklariga ta‘siri yoki o‘zbek xalq dostonlaridan olingan elementlarning tarjima orqali keng ommalashuvi buni dalillaydi. Motiv migratsiyasining mazmuni har bir tarjimada o‘ziga xos semantik qayta talqin jarayoni orqali boyiydi va qiyosiy tahlil uchun yangi material yaratadi.

Komparativistika, shuningdek, janrlararo transformatsiyani ham o‘rganadi. Bitta adabiyotdagi an‘anaviy janr boshqa xalq adabiyotiga o‘tganida yangi shakl, mazmun, kompozitsion yechimga ega bo‘lib, o‘ziga xos modifikatsiyaga uchraydi. Badiiy tarjima janr transformatsiyasining eng muhim qurolidir. Masalan, Sharqning masnaviy shakli G‘arbda ballada yoki romantik poema ruhida qayta tug‘ilishi yoki Yevropa romanining o‘zbek adabiyotiga moslashish jarayoni komparativ tadqiqotning markazida turadi.

Qiyosiy adabiyotshunoslik doirasidagi eng faol tadqiq yo‘nalishlaridan yana biri badiiy tafakkur evolyutsiyasini tahlil qilishdir. Turli xalqlarning dunyoni idrok etish usuli, estetik mezonlari, ijodiy tafakkur modellari vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi va bu o‘zgarishlar o‘zaro ta‘sir va muloqot jarayonida yanada ravshanlashadi. Tarjima ushbu jarayonning katalizatori sifatida turli adabiyotlar o‘rtasidagi umumiylik va farqlarni aniqlash imkonini beradi. Muayyan asarning tarjima variantlari orqali turli davr estetik tafakkurining qanday evolyutsiya qilganini kuzatish mumkin.

Komparativ tadqiqotning yana bir muhim jihati intertekstual aloqalarni o‘rganishdir. Badiiy matnlarning o‘zaro dialogi, matndan matnga o‘tuvchi ishoralar, qiyosiy alluziyalar va reminissensiyalar (muallifning boshqa matnga ishora qiluvchi eslatma-uslub) tarjima jarayonida yanada ko‘p qatlamli tus oladi. Tarjimon matnda mavjud bo‘lgan yashirin intertekstual ishoralarni anglab, maqsad tilida qayta yaratadi yoki ularni talqin qiladi. Shu bois, intertekstual tahlil tarjima orqali yanada keng imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

Komparativistikaning predmeti, shuningdek, madaniyatlararo kontekstni ham o‘z ichiga oladi. Har bir madaniyat o‘ziga xos semantik maydonga ega bo‘lib, tarjima jarayonida bu semantik qatlamlar bir-biriga tutashadi, o‘zaro boyiydi yoki ayrim hollarda to‘qnashuvga kirishadi. Tarjimon

mazkur semantik maydonlarning uygʻunligini taʼminlovchi vositachiga aylanadi va shu orqali adabiyotlararo muloqotni shakllantiradi.

Demak, qiyosiy adabiyotshunoslikning ushbu barcha komponentlari – *obrazlar tizimi, motivlarning migratsiyasi, janr transformatsiyasi, badiiy tafakkur evolyutsiyasi, intertekstual aloqa va madaniy kontekst* – oʻzining eng yorqin, dinamik va keng koʻlamli ifodasini aynan tarjima jarayonida topadi. Tarjima bu jarayonlarni nafaqat aks ettiradi, balki ularning shakllanishiga faol taʼsir koʻrsatadi. Shu maʼnoda, tarjima komparativistikaning passiv emas, balki faol, yaratma obyekt sifatida namoyon boʻladi.

2. Qiyosiy tahlillar orqali badiiy matn strukturasi tadqiq qilish. Qiyosiy adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridan biri badiiy asarning ichki qatlamlarini qiyoslash orqali uning mazmuniy, stilistik va poetik xususiyatlarini maʼlum qonuniyatlar asosida oʻrganishdir. Bu jarayonda tarjima asosiy material sifatida xizmat qiladi, chunki har bir tarjima varianti asarning ichki strukturasi yangicha koʻrinishda ochib beradi, uning mazmunini boshqa madaniy, lingvistik va estetik makonda qayta talqin qiladi. Bu holat struktur adabiyotshunoslikda dekonstruksiya hodisasi bilan izohlanadi. Yaʼni, “asliyat matnini boʻlaklarga boʻlaklash, qismlarga ajratish, muallif niyati va oʻquvchining tushunish ehtimolidan kelib chiqib, matnni qayta yaratishdir”. [Baker, 2018: 5]. Natijada, komparativ tahlilda asarning quyidagi qatlamlari tarjima jarayonida yanada aniqroq namoyon boʻladi:

*Birinchi*dan, fabula konstruksiyasi tarjima jarayonida muayyan oʻzgarishlarga uchrashi, baʼzan strukturaning qayta tashkil etilishi yoki dramatik vaziyatlar oʻzgarishi mumkin. Har bir tarjimon muallif yaratgan voqelikni idrok etish darajasi, psixologik urgʻularni anglash qobiliyati va matn ichidagi *sabab–oqibat* munosabatlarini tahlil qilish salohiyati bilan ajralib turadi. Shu sababli bir asarning turli tarjima variantlari fabula strukturasi qaysi elementlari markaziy oʻringa qoʻyilganini, qaysilari esa chekinib qolganini aniqroq koʻrsatadi. Bu esa qiyosiy tahlilda fabula dinamikasini yanada teran oʻrganish imkonini yaratadi.

*Ikkinchi*dan, obrazlar psixologiyasi tarjima jarayonida oʻziga xos “ikkinchi darajali talqin”ga aylanadi. Muallif yaratgan qahramon ruhiyati tarjimonning idrokidan, til imkoniyatlaridan va maqsad tilining psixologik ifoda vositalaridan oʻtadi. Natijada qahramon xarakteridagi nozik psixologik ranglar, kayfiyat oʻzgarishlari, ichki kolliziyalar bir tarjimada kuchayishi, boshqasida esa yumshatilishi mumkin. Bu holat komparativist uchun qahramon psixologiyasining asl mohiyatini, uning oʻzagi va periferik elementlarini farqlash imkonini beradi.

*Uchinchi*dan, metaforik tizimlar ham tarjima orqali juda aniq ochiladi. Metafora – milliy mentalitetning eng muhim aks-sadosi boʻlib, uni boshqa tilga koʻchirish jarayonida maʼlum maʼno siljishlari yuz beradi. Har bir tarjima metaforaning qanday strategiya asosida koʻchirilganini: *literal tarjima, analogiya, funksional ekvivalentlik* yoki *kompensatsiya* usuli bilanmi – degan savollarga javob beradi. Turli tarjima variantlarining qiyoslanishi metaforaning asl semantik yadrosini, uning metaforiklik xususiyatini va badiiy-estetik funksiyasini tahlil qilish uchun keng maydon yaratadi.

*Toʻrtinchi*dan, poetik sintaksis, yaʼni badiiy matnning ritmik, intonatsion va kompozitsion qurilishi tarjimada doimo qayta shakllanadi. Muallifning sintaktik uslubi – uning idiolekti (muallifning oʻziga xos, boshqa hech kimnikiga aynan oʻxshamaydigan shaxsiy til tizimi)ning eng muhim koʻrsatkichlaridan biridir. Tarjimon esa bu sintaktik meʼyorlarni maqsad tilining grammatik imkoniyatlari bilan moslab beradi. Natijada, iboralar ohangi, gaplar uzun-qisqaligi, pauzalar, ritmik urgʻular va stilistik figuralar har bir tarjimada oʻzgacha koʻrinishga ega boʻladi. Komparativ tahlil aynan shu oʻzgarishlar orqali muallif uslubining barqaror va oʻzgaruvchan komponentlarini aniqlash imkoniyatiga ega boʻladi.

Beshinchidan, semantik maydonlar (matnning ma’no qatlamlari, konseptual strukturalari, madaniy ishoralar va ramziy kodlar va hk) tarjima jarayonida eng ko‘p transformatsiyaga uchraydigan qatlamdir. Har bir tilda ma’lum konseptlar boshqacha semantik o‘zagiga ega bo‘lganligi sababli, tarjima ma’no maydonlarining bir-biriga qanday moslashishini, qaysi semantik segmentlar saqlanib qolishini, qaysilari esa yo‘qolib ketishini yaqqol namoyon qiladi. Turli tarjima variantlari orqali bir asarning semantik olamida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lgani ayonlashadi va komparativ tahlil uchun boy material yaratadi.

Bir so‘z bilan aytganda, tarjima jarayoni badiiy asarning barcha qatlamlarini – fabulasidan tortib semantik strukturasigacha qayta yorituvchi o‘ziga xos “filtr” vazifasini bajaradi. Qiyosiy adabiyotshunoslik ana shu qayta yoritilgan qatlamlar (dekonstruksiya)ni qiyoslash orqali asarning asl mohiyatini, uning milliy-estetik xususiyatlarini hamda madaniyatlararo transformatsiya qonuniyatlarini chuqur o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tarjima, aslida, badiiy matnning ichki tabiatini ochib beruvchi ilmiy tadqiqot uchun eng muhim materialga aylanadi.

3. Adabiy universallarning tarjima orqali namoyon bo‘lishi. Adabiy universallar – bu turli milliy adabiyotlarda takrorlanuvchi obrazlar, motivlar, syujetlar va poetik vaziyatlarning umumiy xususiyatlarini ifodalaydigan tushunchadir. Ular milliy chegaralardan tashqariga chiqib, insoniy tajriba, axloqiy qadriyat va estetik didning umumiylik orqali o‘zini namoyon qiladi. Shu nuqtayi nazardan, tarjima adabiy universallarning faol tadqiq obyekti bo‘lib xizmat qiladi. Tarjima orqali asarning milliy madaniy kontekstdan tashqaridagi universalligi, ya’ni umuminsonga xos badiiy xususiyatlari ko‘proq seziladi va qiyosiy tahlil imkoniyati kengayadi.

Tarjima matnlar orqali amalga oshiriladigan tahlil bir necha muhim jihatlarni qamrab oladi:

1. Tarjima allaqachon shakllangan adabiy an’anani aniqlash imkonini beradi. Har bir adabiyot o‘zining tarixiy, madaniy va estetik kontekstiga ega bo‘lib, u orqali universal obrazlar turli shakllarda ifodalanadi. Masalan, Migel de Servantesning “Don Kixot” asari ispancha, ruscha va o‘zbekcha tarjimalarini solishtirish orqali ritsarlik konsepti qanday o‘zgarishlarga uchrashi aniqlanadi. Tarjimalar qahramonning jasorat, fidoyilik va idealizm kabi xususiyatlarini turli madaniyatlarda qanday idrok etilishi va ularning estetik talqinini ko‘rsatadi.

2. Tarjima jarayoni parodiya modelining milliy o‘zgarishini ochib beradi. “Don Kixot”da parodiya – o‘sha davr Ispaniyasidagi ritsarlik an’analari va badiiy tafakkurga ishora qiluvchi vosita sifatida yaratilgan bo‘lsa, boshqa tillarga tarjima qilinishi davomida u o‘zga madaniy kontekstga moslashadi. Masalan, rus tarjimasida parodiya yanada silliq va subtil ohang bilan ifodalanishi mumkin, o‘zbekcha tarjimada esa komik effekt kuchaytirilib, madaniyatga mos ravishda ayrim elementlar sezilarli darajada o‘zgartiriladi. Bu holatlar, matnlararo qiyosiy tahlil orqali, adabiy universallarning madaniyatlararo transformatsiyasini ko‘rsatadi.

3. Tarjima orqali komik elementlarning madaniyatga moslashuvi ham aniq namoyon bo‘ladi. Asarda mavjud bo‘lgan kulgi va hazil vositalari maqsad tilning lingvistik va madaniy xususiyatlariga mos ravishda qayta talqin qilinadi. Bu esa nafaqat tarjimonning ijodiy salohiyatini, balki universal komik vaziyatlarning turli madaniyatlarda qanday qabul qilinishini tahlil qilish imkonini beradi. Tarjima matni orqali komik obrazlarning dinamikasi, ularning syujet ichidagi roli va o‘uvchiga ta’siri qiyosiy jihatdan ochib beriladi.

Shuningdek, tarjima universal obrazlar strukturasini turli madaniyatlarda taqqoslash imkonini yaratadi. Masalan, qahramonning idealizm, jasorat, sevgining ifodalanishi kabi sifatleri bir matnda boshqacha, qaysidir tarjimada esa o‘zgacha ohangda aks etadi. Shu yo‘l bilan, adabiy universallar nafaqat matnning ichki tizimi, balki uning madaniyatlararo rezonansi sifatida ham o‘rganiladi. Tarjima bu jarayonda shunchaki vosita bo‘lib qolmay, balki asarning universallik qatlamlarini yanada yaqqol ko‘rsatuvchi ilmiy instrumentga aylanadi.

Natijada, tarjima yordamida adabiy universallar o‘zining turli madaniy kontekstlardagi tafovutlari va moslashuv imkoniyatlarini namoyon qiladi. Tarjima nafaqat badiiy matnni boshqa tilga o‘tkazadi, balki universal obrazlar strukturasi milliy o‘zgarishlar, intertekstual bog‘lanishlar va estetik talqinga moslashuv jarayonlarini ham ochib beradi. Shu tariqa, tarjima komparativistikada adabiy universallarning eng muhim kuzatuv maydoni sifatida xizmat qiladi.

Xulosa. Yuqoridagi nazariy mulohazalardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Tarjima jarayoni qiyosiy adabiyotshunoslikning markaziy hamda eng sarmazmun obyektlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Tarjima adabiy matnning butun poetik tabiatini – obrazlar tizimi, motivlar dinamikasi, janr paradigmatlari, estetik tafakkur shakllari, intertekstual aloqalar va madaniy kontekst bilan bog‘liq o‘zaro munosabatlarni – qayta talqin qiluvchi murakkab estetik mexanizm sifatida xizmat qiladi. Aynan shu jarayonlar orqali komparativ poetika uchun eng muhim ilmiy material, ya’ni badiiy matnning “ikkinchi hayoti” shakllanadi.

2. Tarjima o‘z mohiyatiga ko‘ra faqat til almashtirish amaliyoti bo‘lmay, balki badiiy tafakkurning qayta yaratilishi, madaniy universallar va milliy-estetik xususiyatlarning o‘zaro transformatsiyasini amalga oshiruvchi faol estetik jarayondir. Tarjima natijasida matnning ichki strukturasi yuzaga keladigan o‘zgarishlar, semantik qatlamlarning qayta tashkil topishi, obrazlar tizimining yangi madaniy muhitga moslashuvi komparativ tahlil uchun beqiyos imkoniyatlar yaratadi. Bu jarayon o‘z navbatida adabiy universallarning turli madaniy kontekstlarda qanday talqin qilinishini, ularning qay darajada o‘zgarishi va madaniy-semiotik moslashuv qonuniyatlarini ham aniqlash imkonini beradi.

3. Shu ma’noda, tarjima qiyosiy adabiyotshunoslikda passiv kuzatuv obyektiga emas, balki faol yaratuvchan hodisaga aylanadi. U orqali badiiy matnning barcha qatlamlari qayta yoritiladi, o‘zaro solishtiriladi va chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Tarjima jarayonining “filtr” vazifasi esa matnning asl mohiyatidagi universal va milliy komponentlarni ajratib ko‘rsatish, ularning madaniyatlararo o‘zgarish xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tarjima qiyosiy adabiyotshunoslikning metodologik asoslaridan biri sifatida nafaqat ilmiy tahlil uchun muhim obyekt, balki madaniyatlararo badiiy tafakkurni yangidan yaratuvchi ijodiy makon sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli, tarjima jarayonini o‘rganish komparativistikaning zamonaviy nazariy yo‘nalishlarida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi va adabiy universallarning ko‘lami, shakllanish mexanizmlari hamda transformatsiya qonuniyatlarini aniqlashda asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Топер П.М. (2000) Перевод в системе сравнительного литературоведения. – М.
2. Jo‘raqulov U., G.Xalliyeva, A.Qosimov. (2025) Qiyosiy adabiyotshunoslik / darslik. – T.
3. Xalliyeva G. (2020) Qiyosiy adabiyotshunoslik. – T.: Akademnashr, 2020.
4. Исомиддинов З. (2024) Таржима ва тил. – Тошкент: Adabiyot, 2024.
5. Сирожиддинов Ш., Одилова Г. Бадий таржима асослари //Тошкент: Мумтоз сўз. – 2011. – Т. 166.
6. Жўракулов У. - Эзотерик тафаккур универсалияси: Навоий, Шекспир, Гёте. «ShARQ-U G‘ARB: NAVOIY VA GYOTE» mavzuidaги халқаро илмий-назарий конференция материаллари, 2023-йил, 21-июн. – Тошкент: «Nurafshon business», 2023. 8-30-бет.
7. Asadov, M.T. 2021. “Fransuz-o‘zbek tarjimachiligi istiqbollari”. O‘zbekiston: til va madaniyat 1 (3): 125-134.
8. Mahmadiyor Asadov. HOMO POETIKUS KONSEPSIYASI: NAVOIY VA RUMIY. jild. 1 No 1 (2025): SHARQ MUMTOZ POETIKASI MUAMMOLARI: NAVOIY VA RUMIY

9. Mahmadiyor Asadov. (2025). The concept of individualism and absurdity in Camus' the stranger. *American Journal of Philological Sciences*, 5(03), 119–123.
10. Асадов М. (2020) Альбер Камю ва Хуршид Дўстмуҳаммад прозасида абсурд қаҳрамон муаммоси/ “Сўз санъати сўзлиги”, 3 жилд, 2 – сон. Тошкент. 2020 йил. – Б.117 – 126.
11. Асадов М. (2023). “Ёлғизлик мотиви”нинг поэтик талқини. SHARQ-U G‘ARB RENESSANS ADABIYOTI: NAVOIY VA SHEKSPIR mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari, 1(1).
12. Mamarasulova, GA (2025). INGLIZ ROMANTIZMIDA SHARQ ADABIYOTINING O‘RNI: MADANIYATLAR TA‘SIRI. *Ruhiiy ma‘rifat ilmiy-metodik jurnali* , 6 (02), 187-192.
13. Mamarasulova, G. (2025). Tarjimada geosiyosiy nutq. *Multidiscipliner tadqiqotlardagi global tendentsiyalar va innovatsiyalar bo‘yicha xalqaro konferentsiya* , 1 (4), 254-256.
14. Muhammadiyeva, D. (2025). PROBLEMS RELATED TO THE TRANSLATIONS OF “BOBURNOMA” IN TURKIC LANGUAGES. *Türkoloji*(121), 65-84.
15. Asadov, Mahmadiyor. (2022). Existential interpretation of the motive of “loneliness” in the work “the stranger” by Albert Camus. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*. 12. 1-6. 10.5958/2249-7315.2022.00065.X.
16. Asadov, Mahmadiyor & Xoliqovich, Xayrullayev & Yulduz, Ziyayeva. (2022). Poetics of artistic speech in small prose works. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. 12. 680-684. 10.5958/2249-7137.2022.00349.4.
17. Asadov, Mahmadiyor. (2020). THE PROBLEM OF AN ABSURD HERO IN THE PROSE OF ALBERT CAMUS AND KHURSHID DUSTMUHAMMAD. *INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART*. 2. 117-126. 10.26739/2181-9297-2020-2-16.
18. Hamroyev K. SHARQ HIKOYATLARINING TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI //Conferences. – 2025. – T. 1. – №. 1.
19. ХАЙРУЛЛАЕВ А. ШАРҚ ХИКОЯТЛАРИДА “ЁЛҒОН” МОТИВИ //SHARQ-U G‘ARB RENESSANS ADABIYOTI: NAVOIY VA SHEKSPIR mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – 2022. – T. 1. – №. 1.
20. Xayrullayev, A. (2024). N. NORQOBIL HIKOYALARI KOMPOZITSIYASI. In *Conferences* (Vol. 1, No. 1).
21. Khurramov A. The Uniqueness of the Epic Scale in Historical Genres //European Journal of Humanities and Educational Advancements. – T. 5. – №. 3. – С. 77-79.
22. Bekmuradova, Z. (2025). THE UNIVERSAL CHARACTERISTICS OF CHIASMUS (Based on examples from Uzbek and French literary texts). *Modern Science and Research*, 4(2), 434-439.
23. Ziyayeva Y. “OSHIQ-MA‘SHUQA-RAQIB” OBRAZI TAKOMILI HAQIDA //Conferences. – 2024. – T. 1. – №. 1.
24. Xurramov, O. (2023). Roman kontekstida Bobur va boburiylar obrazi. *O‘zbekiston til va madaniyat jurnali*.
25. Teshaboyeva, Z. Q. (1994). A Cognitive Study of “Baburname”’S Translations and Principle of Compiling a Textual Dictionary. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 2006.
26. Mahmadiyor Asadov. (2025). A Brief Review Of Vilen Komissarov’s Theory Of Equivalence. *International Journal Of Literature And Languages*, 5(12), 86–89.

MUNDARIJA		
I SHO‘BA. TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI		
1.	Zuhriddin ISOMIDDINOV. Bizdagi tarjima muammolari	5
2.	Uzoq JO‘RAQULOV. O‘zbek tarjimachiligi istiqbollari	9
3.	Xurram RAHIMOV. Alisher Navoiyning “Munojot” asari tarixi, tabdili va tarjimalari xususida	14
4.	Олимджон КАСИМОВ, Мартаба СУЛТОНЗОДА. Некоторые лингвистические особенности перевода лексем «Шахнаме» на русский язык	17
5.	Ne‘matilla OTAJONOV. Eiji Mano – boburshunos olim	22
6.	Rukhsana IFTIKHAR. Beautification of Mughal women	26
7.	Наталья ФИЛИМОНОВА. Возможности перевода при работе иностранных учащихся с художественным текстом: начальный этап изучения русского языка	30
8.	Kosimboy MAMUROV, Nargiza TILAKOVA Functional syntax and mystical semantics: correlating syntaxemes with sufi concepts in Alisher Navai’s Uzbek and English ghazals	34
9.	Xayrulla HAMIDOV. Muslimbek Yo‘ldoshevning tarjimonlik mahorati	38
10.	Ирода СИДДИКОВА. К вопросу взаимосвязи психолингвистики и художественного перевода	43
11.	Xayrulla HAMIDOV, Zulfizarxon QORAXO‘JAYEVA. Nafisiyning “Jannatning yarim yo‘lida” asaridagi personaj portretining tarjimada berilishi	46
12.	Абдумажид МАДРАИМОВ, Аскарый МАДРАИМОВ. Вопросы перевода научного наследия Захириддина Мухаммада Бабура и традиция перевода в библиотеке Акбара в XVI веке	51
13.	Supriya BANERJEE, Iroda UMAROVA Reimagining classics: Tagore, translation and the global reader	54
14.	Ziyodaxon TESHABOYEVA. “Boburnoma”da milliy-madaniy xususiyatli til birliklar va ularning inglizcha tarjimalari	58
15.	Zulhumor MIRZAEVA. Politics under the mask of poetics: Chulpon’s translations in the 1920s-1930s	62
16.	Abdumajid MAMADALIYEV. Badiiy matn tarjimasida milliy koloritni ifodalash muammosi	72
17.	Muhammadjon ABDUVALIYEV. Sinxron tarjimashunoslikning zamonaviy masalalari	74
18.	Мұратбек БАҒИЛА, Кәмшат АЙМАҒАМБЕТОВА. Қазақ тілін оқыту әдістемесінің жаңа парадигмалары	80
19.	Shermurod SUBHON. Ijodiy kengashlarda	84

20.	Shermurod SUBHON. Kitobxon oldida mas’uliyat	97
21.	Murtazo SAYDUMAROV, Mahmudaxon SAYDUMAROVA. O‘zbek adabiyotining ilk romani tarjimalarida lingvomadaniy xususiyatlar va semantik o‘zgarishlar	100
22.	Mahmadiyor ASADOV. Tarjima – qiyosiy adabiyotshunoslikning tadqiqot obyekti	107
23.	Toshtemir ALIMOV. Gender as a linguistic and cultural parameter in literary translation	113
24.	Tozagul MATYOQUBOVA. Ilk hasbi hol qasida va uning o‘zbek tarjimoni	116
25.	Dilafruz MUHAMMADIYEVA. “Boburnoma”ning turkcha tarjimasi bilan bog‘liq muammolar	120
26.	Umida TURAeva. Some challenges of translating forensic terminology between English and Uzbek	125
27.	Елена ПАНОВА. Мифопоэтическая традиция и проблемы перевода и функционирования онимов в волшебной повести «Алиса в стране чудес» Л. Кэрролла	128
28.	Gulnoz MAMARASULOVA. Siyosiy matn tarjimasining lingvokulturologik jihatlari	137
29.	Эльнора БАГАВОВА. Эволюция переводческих теорий: от традиционных подходов к современным тенденциям	140
30.	Dilfuza KHUDAIBERDIEVA. Translation studies: traditional and modern approaches	144
31.	Gulnoz MAMARASULOVA, Ruxshona CHO‘LIYEVA. Diplomatiik matnlarning tarjimada ifodalanishi	148
32.	Dilshod AMIRQULOV. Tarjimashunoslikda til tipologiyasi asosida komparativ yondashuv	151
33.	Tozagul NASRULLAEVA. Literary translation as interpretation: on the basis of Dreiser’s literary works	154
34.	Мохира ЭШКУВАТОВА, Достонбек АХМАДОВ. Роль лингвострановедческого компонента в обучении переводу	156
35.	Islom TURDIYEV. Ingliz va o‘zbek tillaridagi ayrim ish yuritish terminlarining tarjima talqinidagi muammolari	160
36.	Фотима УМИРЗАКОВА. Проблемы традиционных и современных подходов в немецком переводе	163
37.	Shohsanam BEKMURATOVA. Maqollar tarjimasida tarjimonlarining lingvomadaniy yondashuvlari	166
II SHO‘BA. QIYOSIY TILSHUNOSLIK MASALALARI		
38.	Sayed Mohamed Ahmad KORAYEM. Principles for developing comparative linguistic studies	171
39.	Nedim BAKIRCI. Milli kimlik inʃasinda halk biliminin iʃlevi	183
40.	Farhad RAHIMI. Beʃ, bel, bilek, elik/ el ve ilik kelimelerinin etimolojik ve anlamsal baĝlantilari	190